

## BOLALARDA EMOTSIONAL-KOGNITIV RIVOJLANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Muxtarova Aziza Erkinovna

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazi  
"Psixologik xizmat va targ'ibot" bo'lim boshligi*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda deprivatsiya va uning turlarini, kognitiv, emotsional, xulq – atvor, muloqot sohasidagi buzilishlarni aniqlashga qaratilgan diagnostik metodikalar tizimli tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlar: oila, bola, emotsional aloqa, deprivatsiya muammosi, ijtimoiy dezadaptatsiya, ong-timsoli, xulq-atvordagi buzilishlar, emotsional sohadagi buzilishlar, ong-faoliyati, muloqot, his-tuyg'u, psixika, intellektual moslashuvchanlik.*

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭМОЦИОНАЛЬНО-КОГНИТИВНОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ

Мухтарова Азиза Эркиновна

*Низамий ТДПУ Психологический образовательно-научный центр, заведующая кафедрой  
«Психологическая служба и пропаганда»*

*Аннотация. В данной статье систематизированы методы диагностики, направленные на определение депривации и ее видов, когнитивных, эмоциональных, поведенческих и коммуникативных нарушений у детей дошкольного возраста.*

*Ключевые слова: эмоциональная связь, проблема депривации, социальная дезадаптация, нарушения поведения, нарушения в эмоциональной сфере, общение, эмоции, психика, интеллектуальная гибкость.*

## PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF EMOTIONAL-COGNITIVE DEVELOPMENT IN CHILDREN

Mukhtarova Aziza Erkinovna

*Nizamiy Toshkent state pedagogical university Psychological Educational-Scientific Center, Head of Department «Psychological Service and Propaganda»*

*Annotation. This article systematically analyzes diagnostic methods aimed at determining deprivation and its types, cognitive, emotional, behavior, and communication disorders in preschool children.*

*Key words: emotional connection, problem of deprivation, social disadaptation, behavioral disorders, disorders in the emotional sphere, communication, emotion, psyche, intellectual flexibility.*

Maktabgacha bo'lgan yosh jadal ruxiy rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Aynan bu yoshda ruxiy fiziologik funksiyalarni takomillashtirishdan boshlab, murakkab shaxsiy yangi xosilalar bilan yakunlagan xolda barcha soxalarda progressiv o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Psixologiya maktabi qarashlariga ko'ra kattalar bilan muloqot bola ruxiy rivojlanishi, atrofdagilar bilan emotsional munosabatlarning shakllanishi asosiy sharti bo'lib hisoblanadi. Uning tanqisligi yopiq bolalar muassasalari tarbiyalanuvchilari rivojlanishi buzilishi asosini tashkil qiladi. Oila sharoitida tarbiyalanadigan bolalar 3 oydan oq yaxshiroq kattalarni ajratadi va bolalar uyi tengdoshlariga qaraganda yanada turli xil muloqot vositalaridan foydalanadi. Bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mexribonlik uyidan bo'lgan go'daklar kommunikativ vaziyatlarda ancha quyi faollikni namoyish qiladi.

Ko'pgina tashqi va ichki shart va sabablar faol nutqqa o'tishga ta'sir ko'rsatadi. Chunki bu shartlar o'zaro bir biri bilan bog'liq. Tashqi shartlarga hissiy muloqot, hissiy aloqalar, hamkorlik, bola tarafidan muloqot shartlarini qabul qila olishlik kiradi. Keyinchalik kattalar bilan muloqot qilish jarayonida bolalar ham muloqot doirasida, ham predmetlarni birlamchi manipulyasiya qilish doirasida bevosita shaxsiy tajriba orttiradilar. Bu esa bolaning ichki rivojlanishiga zamin bo'ladi. Bolada predmetni ko'rish obrazi va u bilan o'zaro ta'sir tajribasi orta boradi. Katta odam bolaga predmetni taklif qiladi, unga nomini va nima qilish kerakligini aytadi, bolada esa kurayotgan predmeti va eshitayotgan so'zi orasida aloqa paydo

buladi. Aniq predmet va u bilan bog'liq harakat asosida eshitish obrazi rivojlanadi. Shu davrda bola kattalarning gapini tushinishi mumkin deb taxmin qilish mumkin.

Bolaning psixik rivojlanishi va shaxsi shakllanishida uni qurshab turgan odamlar bilan ijobiy emotsional o'zaro munosabatlar juda muhimdir. Ayniqsa bu bola hayotining birinchi yarim yilligida zarur bo'lib, aynan shu vaqtda uning kattalar bilan aloqasi bevosita emotsional darajada bo'ladi. U shuning uchun ham emotsional hisoblanadiki, chunki bola kattaga o'zining his-tuyg'ularini ko'rsatib, katta odamning ham his-tuyg'uli munosabatini qabul qiladi. Bu aloqa bola va katta o'rtasida vositasiz, sof holda bo'lgani uchun ham bevosita muloqot deyiladi.

Emotsional muloqot – bu katta va bola o'rtasidagi birlamchi psixik aloqadir. U bola hayotining ilk oylaridayoq shakllanadi va keyinchalik turli sabablarga ko'ra kattalar bilan muloqotga kirishish uchun zarur sharoitlar yaratadi. Bundan tashqari bola kattalar bilan emotsional muloqotga kirisharkan tovush xususiyatlari va nutq ohangi intonatsiyaga ham e'tibor beradi.

Psixologiyaga doir adabiyotlarda “emotsional aloqa” degan tushunchaga sharhlar berilgan. Olim A.V.Zaporojetsning fikricha emotsional aloqa kattalar va bolalar o'rtasida muloqot shakli, muloqot vositasi va munosabatlar tizimi sifatida ko'rinadi. S.V.Kornitskaya esa emotsional aloqa bola qarshisidagi odamning his-tuyg'ularini qabul qilgandagina yuzaga keladi deydi. Emotsional aloqa deganda affektiv va emotsional bog'liqliklar ham tushuniladi. Ularni esa bolani qurshab turgan odamlar bilan shakllangan boshqa munosabatlarga solishtirib o'rganish zarurdir.

A.N.Leontev quyidagilarni yozadi: “Dastlabki ong sub'ektga uni qurshab turgan dunyoni tanitgan psixik timsol shaklida namoyon bo'ladi, faoliyat esa avvalgidek amaliy va tashqi holatda qolaveradi. Keyingi bosqichlarda borliq ham ongda aks eta boshlaydi: boshqalarning harakatlari tushuniladi ular orqali sub'ekt o'zining harakatlarini ham anglaydi. Endi bu harakatlar imo-ishora va tovushlar yordamida o'zaro muloqotga kirishadi. Bu esa miyada ongli ravishda kechadigan ichki faoliyat va amallarning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Shuningdek ong-timsollar ong-faoliyatga aylanadi.”

Bolaning psixik va xususan nutq rivojlanishi uchun emotsional aloqaning ahamiyati muhimligiga emotsional deprivatsiya sharoitidagi bolalar nutqidagi nuqson va orqada qolishlik ham dalil bo'la oladi. Emotsional aloqaning yetishmasligi bolada butun psixik rivojlanishning, nutqning va bilim orttirishning orqada qolishiga sabab bo'ladi.

Mualliflarning ta'kidlashicha, oilaviy bolalarning hulq-atvori yanada erkin va emotsional boydir. Mexribonlik uyi tarbiyalanuvchilari kam kuladi, harakatlari siqiq va uncha ifodalanmagan, lug'at boyligi boy emas, bir xil grammatik nutq tarkibiga, to'rt marotaba chalg'ish darajasiga ega. Bunga sabab, mexribonlik uyi muassasalarida yashash sharoiti xususiyatlari hisoblanadi. Shuningdek oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiyadan bo'lgan asosiy farqlari keltiriladi:

-oilaviy bolalar individual ravishda qaratilgan (shaxsiy murojaat) kattalar tomonidan e'tiborga ko'proq duch keladi;

-bolalarga qaraydigan bolalar muassasalari xodimlarining tez-tez o'zgarib turishi;

-oiladagi kattalar bilan bo'lgan aloqalar emotsional jihatdan turlichadir;

-oiladagi bolaga bo'lgan yumshoq, sabrli munosabat qatorida muassasadagi qat'iy belgilangan bolalar hulq-atvori.

N.N.Avdyeva tadqiqotlarida shuni ta'kidlaydiki, oilada o'sgan bolalar go'daklik chog'laridanoq ko'zguda o'zlarini ko'rib tanishga qodirlar, ya'ni ularda o'zlari haqidagi tasavvur shakllana boshlaydi. Buning zamirida bolada kattalarning munosabati orqali o'ziga bo'lgan munosabat yuzaga keladi.

Emotsional aloqalarning keyingi bosqichida bolalarda his etishlik kuchayib, kattalarga beradigan ham ijobiy, ham salbiy baholari ularning hatti-harakatiga qorishib ketadi. Bolalar predmetlar bilan qiladigan hatti-harakatlarida kattalarning munosabatini farqlay boshlashadi: agar katta odam uning harakatlarini ma'qullasa xursand bo'lishadi, agar norozilik bildirsa xafa bo'lishadi. Bola tanlagan katta odamning qo'lidagi predmet u uchun alohida emotsional ahamiyatga ega bo'ladi.

Shunday qilib, turli xil olimlar mexribonlik uyi muassasalari tarbiyalanuvchilarining rivojlanishi oilada o'sgan bolalarning rivojlanishidan sifatijihatdan farq qiladi. Ota ona qaramog'idan maxrum bo'lgan bolalar rivojlanishidagi bu yetishmovchiliklar psixik rivojlanishning orqada qolishidan va aqliy zaiflikdan farq qiladi. Oiladan tashqarida tarbiya topishlik birinchidan, bolaning onasi bilan munosabati yo'qligi bilan xarakterlanadi. Ikkinchidan, bolaning boshqa kattalar bilan chuqur emotsional munosabatlar qurish imkoni chegaralangan bo'ladi. Uchinchidan, bu kabi muassasalarning maxsus shart-sharoitlari: erkinlik, ma'suliyat va tashabbusning cheklanganligi, xoli qolishning imkoni yo'qligi bola rivojlanishiga

salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlarda keltirilgan maktabgacha yoshdagi bolalarda deprivatsiya namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini analiz qilgan holda, oilaviy tarbiya sharoitida yuzaga keladigan deprivatsiyani ham aytib o'tish joizdir. Deprivatsiya muommosini tadqiq etishning asosiy yo'nalishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kungacha oila sharoitidagi deprivatsiya juda kam tadqiq etilgan.

Avvalo aytib o'tish lozimki, maxsus "oilaviy deprivatsiya" terminini yo'qligiga qaramay, bu muommoni ko'pchilik tadqiqotchilar, deprivatsiya oila sharoitida yuzaga kelishi mumkinligini tan oladilar. Oiladagi deprivatsiya ostida ham biz, bola ontogenezining avvalgi bosqichlarida hayoti uchun zarur bo'lgan istaklarini qondirilmasligini tushunamiz.

Adabiyotlar ruyxati

1.I.Karimov O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.–T.: "O'zbekiston" NMIU, 2011 yil, 206-207 betlar.]

2.Diagnostika umstvennogo razvitiya doshkolnikov. M.: Pedagogika, 1978./ L.A.Venger, V.V.Xolmovskaya tahririyoti ostida).

3.L.N.Tolstoy. T.a.t.M.: Xudojestvonnaya literatura, 1957, t.21, 165-166 bet.

4.Vigotskiy, L.S. Psixologiya razvitiya rebyonka – M.: Smisl, Eksmo, 2004. – 512s

5.Rogov, YE.I. Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa: Ucheb. posobiye: v 2 kn. – M.: Izd-vo VLADOS-PRESS, 2005. – Kn. 1: Sistema raboti psixologa s detmi raznogo vozrasta. – 384 s:

6.Vigotskiy, L.S. Psixologiya razvitiya rebyonka – M.: Smisl, Eksmo, 2004. – 512s.

7.Langmeyer, Y., Mateychek, Z. Psixicheskaya deprivatsiya v detskom vozraste – Praga, Avitsenum, 1984 – 98 s.

8.Fromm, E. Velichiye i ogranichennost teorii Freyda – Izd-vo: AST, 2000 g. – 448 s.